

## MILLIY QO'SHIQCHILIK SAN'ATI PEDAGOGIKASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI

**Esonova Kursiya Nazarovna**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, dotsent

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada milliy qo'shiqchilik san'ati uning o'qitilish pedagogikasi haqida batafsil ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Shuningdek, milliy qo'shiqchilik san'ati hamda shashmaqomda ayollar ovozi, ularning ijrochiligi xususida fikr-mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so'z:** milliy qo'shiqchilik, shashmaqom, ovoz, tembr, pedagogika, ayollar ovozi, ilmiy tadqiqot, madaniy islohot

## ПЕДАГОГИКА НАЦИОНАЛЬНОГО ПЕВОГО ИСКУССТВА И ЕЕ ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ

**Эсонова Курсия Назаровна**

Государственный институт искусства и культуры Узбекистана  
Заслуженный артист Узбекистана, доцент

**Аннотация:** В данной статье представлена подробная информация о национальном певческом искусстве и педагогике его преподавания. Также были высказаны мнения об искусстве национального пения и женских голосов в шашмакоме, их исполнении.

**Ключевые слова:** народное пение, шашмаком, голос, тембр, педагогика, женский голос, научные исследования, культурная реформа

## PEDAGOGY OF NATIONAL SINGING ART AND ITS PRACTICAL SIGNIFICANCE

**Esonova Kursia Nazarovna**

State Institute of Art and Culture of Uzbekistan

Honored artist of Uzbekistan, docent

**Abstract:** This article provides detailed information about the national singing art and its teaching pedagogy. Opinions were also expressed about the art of national singing and women's voices in shashmaqom, their performance.

**Key words:** national singing, shashmaqom, voice, timbre, pedagogy, women's voice, scientific research, cultural reform

Xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo'lgan milliy maqom san'ati o'zining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an'analari bilan ma'naviy hayotimizda muhim o'rin egallaydi. Asrlar davomida ulug' shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashaqqatli mehnati va fidoyiligi, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan ushbu noyob san'at nafaqat yurtimiz va sharq mamlakatlarida, balki dunyo miqyosida katta shuhrat va e'tibor qozongan. Maqom san'atining gultoji bo'lgan "Shashmaqom" YuNeSKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida e'tirof etilgani hamda uning Rerezentativ ro'yxatiga kiritilgani buning yaqqol tasdig'idir.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda maqom san'atini o'rganish va rivojlantirish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, o'zbek "Shashmaqom"i nota matnlarining nashr etilishi va ularga muvofiq ravishda maqom kuy-qo'shiqlarining magnit lentalariga yozib olinishi ulkan ilmiy-madaniy ahamiyatga ega voqea bo'ldi. Hozirgi kunda yurtimizda Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansambli, hududlarda maqom jamoalari, O'zbekiston davlat konservatoriyasida shu yo'nalishda maxsus kafedra faoliyat ko'rsatayotgani, sohaga oid ilmiy izlanishlar olib borilayotganini qayd etish lozim.[1]

Ayni vaqtda milliy o'zligimizni anglash, madaniyatimizni har tomonlama rivojlantirish, xalqimiz, avvalo, yosh avlodimizni yuksak insoniy tuyg'ular ruhida tarbiyalash, uning estetik didi va tafakkurini shakllantirishda maqom san'atining keng imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayapti. Mazkur yo'nalishda chuqur ilmiy-nazariy tadqiqotlar, o'quv-uslubiy adabiyotlar yaratish, maqom san'atini radio-televide niye, ommaviy axborot vositalari, Internet tarmog'i orqali mamlakatimizda va chet ellarda targ'ib etish, maqom ustozlari, soha olimlari va mutaxassislari, iqtidorli va istiqbolli yosh ijrochilar faoliyatini moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash ishlari e'tibordan chetda qolib kelmoqda.

Maqomlarga xos xususiyat aqliy teranlik, mantiqiy fikrlash asosida ma'naviy fazilatning barcha qirralarini ongli ravishda o'zlashtirish orqali aqliy barkamollikka erishishni ta'minlashdan iborat. Xalq qo'shiqlari, maqomlarning qamrov doirasi chegaralanmagan. Mazkur ijro namunalarini o'quvchilarning yosh xususiyatlari, dunyoqarashi, ahloqiy-estetik taraqqiyot darajasiga ko'ra darsliklarga kiritish ta'lim jarayonida o'quvchilarning ma'naviyatini yuksaltiradi. Hozirda ta'lim muassasalarida musiqiy ta'lim-tarbiya berishdan asosiy maqsad yosh avlodni milliy musiqiy merosimizga hurmat ruhida voyaga yetishini ta'minlashdan iboratdir. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, mumtoz maqom yo'llarining nafis va dilkash, chuqur falsafiy ma'noga ega ta'sirchan cholg'u ila aytim navolari xalqimizni qadimdan bahramand etib kelmoqda. Maqomlarning asrlar osha yashab kelayotgani bir qator omillar, xususan, ustoz hofizu sozandalarning yuksak ijrochilik mahorati bilan chambarchas bog'liq. Xalq musiqa san'atining jonli jarayonini aks ettiruvchi mezon bu — ijrochilik amaliyotidir. Ijrochilik amaliyoti qanchalar ilg'or va salohiyatli bo'lsa, uning ijodiyotga ta'siri ham ulkan bo'ladi.[2]

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining VI sinflari uchun S.Begmatov, D.Karimova, Q.Mamirovlarning "Musika" darsligi, O.Ibrohimov, J.Sadirov tomonidan yaratilgan VII sinf uchun "Musika" darsliklarida mumtoz musiqa haqida

tushuncha, kuylar, ashulalar, Shashmaqom, maqom turlari haqida bayon etilgan. har bir mavzu bolalarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib tinglash va kuylash uchun ijro namunalari keltirilgan. Darslik mavzularini o'rganish jarayonida kuylash amaliyoti bo'yicha ko'pgina mulohazalar yuzaga keldi, muammolar aniqlandi. VI sinf musiqa darsligida har bir chorakda muayyan mavzuni yoritishga qaratilgan. O'quvchilar choraklar davomida Shashmaqom, Chormaqom, Xorazm maqomlari ijrochilik maktablari haqida nazariy ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Biroq, maqom ashulalarini kuylash bo'yicha ko'nikma va malakalarni egallash uchun ijro namunalari taqdim etilmagan. Buning asosiy sababi, mazkur maqom ijrochiligi maktablarida ashula namunalari katta diapozonli, yuksak ijrochilik mahoratini talab qiladigan asarlardan iborat. Shuning uchun mualliflar asarlarni berishdan mulohazaga borganlar.

Ashulalarni o'quvchilarning yosh xususiyatlari, dunyoqarashi, axloqiy-estetik taraqqiyot darajasiga ko'ra tanlashda voha ashulachilik ijro namunalari — mumtoz ashula darajasidagi asarlari ko'plab uchraydi. Masalan, xalq qo'shiqlari "Sharob", "Tanovar", "Miskinlar", "Farg'onacha", o'tmish bastakorlar ijodi "So'lim", "Dilxiroj", "Sallamno" kabi o'nlab ashulalar, mumtoz ashulalardan "Chorgoh 4", "Qashqarcha", "Rok", "Sarohbori", "Dugoh 2–3" taronalari shular jumlasidan. Yosh avlodni milliy musiqiy merosimizni idrok eta oladigan barkamol shaxs qilib voyaga yetkazishda mazkur ashulalarning to'liq variantini darsliklarga kiritish lozim. Mavzu bo'yicha nazariy bilimlardan so'ng musiqa savodi va ijro asarlari mantiqan mavzuga mos bo'lishi lozim. Masalan, darslikda mumtoz musiqa haqida tushuncha berilib, musiqa savodi qismida mavzuga mos bo'lmagan mashqlarga dirijorlik qilish jarayoniga o'tilgan. Bolalarning psixo-fiziologik holatlaridan kelib chiqib bir soatlik dars jarayonida bolaning xotirasini uch xil faoliyatga chalg'itmay, musiqa savodini ham, ashulani ham mavzuga mos ravishda tanlash kerak.[3]

Musiqqa savodi qismida mumtoz musiqaga oid kalit soʻzlar yoki atamalar maqom, bozgoʻy, maqom nomlari va boshqalar berilsa, maqsadga muvofiq boʻlardir. Ashula qismida mumtoz kuylar “Fargʻonacha janon” “Ey sarviravon”, “Sarohbori dugoh taronalari”, “Qalandar”, “Soqiynoma” va “Uforlar” tarannumini kiritish dars samaradorligini oshiradi. Musiqqa fani oʻqituvchilarining barchasini ijrochilik mahoratini yuksak, deya olmaymiz. hamma oʻqituvchi ham iqtidorli xonanda emas, yoki aksincha sozanda emas. Shunday ekan, musiqqa oʻqituvchisi oʻz imkon darajasida faoliyat koʻrsatadi.

Mutaxassislarning fikricha, maqom ijrochiligida necha-necha avlodlarga mansub mashhur honanda-yu sozandalarning ijroviy mohirligi va tajribalari bu sohani yuksalishiga olib kelgan. Bunda ustoz darajasiga yetgan bastakor va ijrochi oʻzi ning ijodiy bisotidan shogirdlariga “yuqtirish” bilan mumtoz musiqqa namunalari abadiylashtirishga oʻz hissasini qoʻshishga intiladi. Shogirdlar ham ushbu qoidaga amal qilgan holda ustozlardan olgan ilmiy-ijodiy malakalarini yanada sayqallashtirib, oʻz navbatida kelgusi avlod vakillariga yetkazishga harakat qilish lozim Kaykovusning “Qobusnoma” asarining “Hofiz va sozandalik zikrida” nomli bobida bayon etilishicha, musiqqa ilmining ustozlari ushbu muallif yashagan davrda xalqning har bir tabaqasi tabiatiga mos ravishda kuylar tuzishgan. Bunday tabaqalardan biri esa yosh bolalar va noziktaʼb kishilar, yaʼni ayollar boʻlishgan. Bu qavm uchun, — deyiladi asarda — taronani ishlab chiqdilar, toki bu qavm ham bahra olsinlar, rohat qilsinlar. Chunki hamma vaznlarning orasida taronadin yoqimli vazn yoʻqdur”. XIX asrning oxiri XX asrning birinchi yarmida maqom ijro anʼanalarining buyuk davomchilaridan biri, benazir hofiz va sozanda Abdulaziz Rasulov shogirdlarining ijodiy mahoratini oshirish maqsadida maqomlarni bilib olgan yosh ashulachilarga bitta ashulani turli variantlarda koʻrsatib, ularni mustaqil improvizatsiya qilishga oʻrgatar edi. Ustoz shogirdlaridan shu tariqa ijro ham ijodiy barkamollikka erishishni talab qilardi. “Ustoz-shogird” maktabi asosida maqomlarni oʻrganish uzoq oʻtmishda shakllangan va hozirgacha

davom ettirilmoqda. Shogirdning xalq oldida, musiqa ixlosmandlari oldidagi mustaqil xonish qilishi ustozning bevosita ijzoti bilan amalga oshirilgan. Xonandalik ijro amaliyotiga ega bo'lmagan musiqa o'qituvchilarini maxsus kurslarda qayta tayyorlash, ularning mahoratini shakllantirish kerak.[4;134]

Musiqa fanidan o'quvchilarda maqom haqidagi tushunchalarni shakllantirish bo'yicha amalga oshirayotgan ishlar va aniqlangan muammolarni bartaraf etish borasida keng ko'lamli izlanishlar olib borishni davrning o'zi taqozo etmoqda. O'qituvchilarni qayta tayyorlash insitituti va Respublika ta'lim markazi bilan hamkorlikda "Mahorat maktabi" seminarlari muntazam o'tkazib, unda maktab darsliklarida uchrayotgan ayrim masalalar qayta ko'rib chiqilmoqda. Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy hayotida mavjud barcha sohalar qatori musiqa san'ati ham ajdodlarning bebaho merosidan bahramand bo'lmay turib taraqqiyotga erishishi mumkin emas. Shu bois, an'analarga sodiq qolish va ularga har lahzada tayanish kelajak samarasi, farzandlar istiqboli va barkamol avlod tarbiyasi garovidir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qodirov. D. Q. An'anaviy qo'shiqchilik. Iqtisod-moliya nashriyoti. 2008-yil.
2. Begmatov.S., Karimova.D., Mamirov.Q. Musiqa. 6-sinf uchun darslik.
3. G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. — T.: 2008-yil.
4. Назарова, Ирода. Мақом сан`atini o'qitishning dolzarb masalalari / Ирода Назарова 2020. — (294). — С. 478-480.